

ILK BOLALIK YOSHIGACHA BO‘LGAN BOLALAR NUTQIDAGI O‘ZGARISHLAR

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna

FarDU dotsenti

Axunova Nargiza

FarDU talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kichik yoshdagi bolalarni muloqotga tayyorlash, ularning nutqini rivojlantirishga doir eng muhim jihatlar va xususiyatlar bayon etilgan. Ilk yoshdagi emotsional-muloqotga ehtiyojmandlik davri muhim ekanligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: bola psixikasi, aloqa shakli, nutq apparati

Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga alohida e‘tibor bermoqda. Insonning eng chiroyli xususiyatlari deganda ko‘z oldimizga chiroyli so‘zlash nutqiga ega bo‘lganlar keladi. Ravon nutq orqali ifodalangan fikr tushunarli va yoqimlidir. Nutq faqat inson uchun xos bo‘lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir. Odam nutqi ma’noli va tushunarli bo‘lishi uchun nutq a’zolarining harakatlari to‘g‘ri va aniq bo‘lishi kerak. A.N.Leontev bola nutqini shakllanishini 4 davrga ajratadi:

1. Tayyorgarlik davri bola tug‘ilganidan 1 yoshgacha;
2. Bog‘chagacha bo‘lgan davr 3 yoshgacha;
3. Maktabgacha bo‘lgan davr 7 yoshgacha;
4. Maktab davri.

Bola dunyoga kelgan daqiqasidan boshlab ovoz chiqara boshlaydi. Bu ovoz qichqiriq va yig‘idan iborat bo‘ladi. To‘g‘ri bu ovoz odam nutqiga o‘xshamaydi.

Ammo, ona shu qichqiriq yig'i nutq apparatining uch bo'limi nafas olish, ovoz hosil bo'lish, artikulyatsion rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bola 2 haftaligida gapirayotgan odamning ovoziga qaray boshlaydi. Bir oyligida alla ohangida tinchlanishi mumkin bo'lib qoladi. 2 oyligoda gugulash, 3 oylning o'rtalarida bo'g'inlarning talaffuzi paydo bo'ladi. Oldiga kelgan odamga tikilib, emotsional munosabatda bo'la boshlaydi. U odamga uzoq vaqt tikilib qaraydi. Lablarini harakatlantirib, tilini aylantirib go'yo odamning nutqiga taqlid qilmoqchi bo'ladi. Ana shu vaqtdan boshlab bolalar bilan mehribonlik ohangida gaplashib turish kerak. Bunday munosabatlar natijasida bolada aktivlik, kattalarga talpinish reaksiyasi paydo bo'ladi. Psixologlar bolalarda kattalar bilan bo'lgan munosabatdan yuzaga keldigan emotsional munosabatlarni jonlanish kompleksi, deb ataganlar. Bu kompleksda bola bilan munosabatda bo'layotgan odamga muloyim tikilib, jilmayadi, qo'l va oyoqlari bilan talpinib qandaydir ovoz chiqaradi. Bolada qandaydir mamnunlik hissi yuzaga keladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, agar bolalar bilan keragidan ortiq munosabatda bo'lib ularni jonlanish kompleksini yuzaga keltirib berilsa, ular kattalarga o'rganib qoladilar va o'yinchoqlarga qaramay qo'yadilar. 6-7 oylik bolalarda taqlid qilish harakatlari paydo bo'ladi. Bola psixikasining taraqqiyotida taqlidning roli juda katta. Bola juda ko'p nutqni asosan taqlid qilish orqali egallaydi. Bolani 5-6 oylikdan boshlab nutqni tushunishga o'rgatish lozim. Bola nutqni tushuna boshlagandan so'ng unga faqat narsalarning nomi emas, balki ayrim sodda harakatlar nomini o'rgatish lozim. Masalan, "chapak-chapak" deb chapak chalinsa, bola shu so'z aytilsa, chapak chaladigan bo'ladi. Bola ayrim so'zlarga tushuna boshlagach, kattalar bilan ko'proq aloqada bo'lishni xohlaydi. Ana shundan foydalanib, bola bilan imkoni boricha ko'proq munosabatda bo'lishga, uning nutqini o'stirishga harakat qilish lozim. Bundan tashqari 9-10 oylik bolalarga o'z tana a'zolarining nomlarini ham o'rgata boshlash kerak. Keyinchalik bolalarda ana shunday sodda so'zlarni umumlashtirish qobiliyatini ham o'stirish kerak. Bola "Oyingning ko'zi qani?", "Qo'g'irchoqning burni qani?" kabi savollar orqali tana a'zolarini o'rganadi. Umuman olganda, bola nutqining ravon va aniq bo'lishi uning emotsional muloqotga extiyojmandlik davrini qanday o'tkazishga

bog'liq. Shunday ekan, farzandlarimiz nutqi ravon bo'lishi uchun uning 0-1 yoshgacha bo'lgan davri eng muhim davri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Юлдашева Д.М. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. cyberleninka.ru
2. ДМ Юлдашева, Д Аскарлова, М Зоҳидова. Ўзбек болалар нутқида доир матнларда лакуна. Academic research in educational sciences 2
3. D.Yuldasheva. Anthropocentric approach to children's speech study. Конференции.
4. Ю.Д Махамдалиевна. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 12 (Ulrich`s ...
5. YD Maxamadaliyevna, M Matmusaeva. On Lingvofolcloristic Units. International Journal of Culture and Modernity 11, 169-171
- YD Maxamadaliyevna, MX Madaminovna. Gnoseological Substantiation of Cognitive Development Children. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2 (4), 7-11
8. Maxamadaliyevna, Y. D. ., & Madaminovna, M. H. . (2022). GNOSEOLOGICAL ASPECTS OF RESEARCH OF ISSUES OF TEACHING SCHOOLCHILDREN TO STATEMENT AND SOLVING PROBLEMS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 35–39. Retrieved from <https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh/article/view/65>
8. YD Maxamadaliyevna. USE OF PRESIDENTIAL NAMES IN UZBEK CHILDREN'S TEXTS. Gospodarka i Innowacje. 22, 68-70
9. D Yuldasheva, S Umarova . МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА О 'ЙИНЛАР ТЕХНОЛОГИЯСИ. Scientific progress 3 (2), 746-751
10. ДМ Юлдашева. Синтактик такрорларнинг бадиий-эстетик имкониятлари. Международный журнал/ Искусство слова.

11. DM Yuldasheva, MA Ermatova. PROFESSOR A. MAMAJONOV-USLUBSHUNOS OLIM. Educational Research in Universal Sciences. 2023/8/28.
12. DM Yuldasheva, ZI Usmonova. MUALLIF NUTQI AGNONIMLARI (Siddiq Mo‘min ijodida misolida) Educational Research in Universal Sciences. 2023/8/28.
13. D Yuldasheva, N Nabieva. Anthropocentric analysis of the “Wolf” zoomorphic metaphor in children’s folklore. Scientific journal of the Fergana State University.